

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“KELISHILDI”**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar

Vazirligi \_\_\_\_\_

2023-yil

**“TASDIQLAYMAN”**

Urganch davlat universiteti rektori

B. Abdullayev

2023-yil



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA**

**BAHOLAR MEZONI**

**« Chizmasvir » va « Kompozitsiya » fanlari**

60210501 – Rangtasvir (dastgohli)

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun

**Urganch - 2023 yil**

Dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2023-yil  
apreldagi 4 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

“\_19\_”

Tuzuvchi:

Urganch davlat universiteti Tasviriy  
san'at va muhandislik grafikasi mudiri  
H.Rahimov.

Urganch davlat universiteti Tasviriy  
san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasi o'qituvchisi Sh.Kalandarov.

Taqrizchilar:

Urganch davlat Pedagogika institute  
“San'atshunoslik” kafedrasi mudiri  
D.Sherov

## KIRISH

60210501-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi.

60210501-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi talim shakliga oqishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda dizayn sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarining shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

### **3. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.**

60210501-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi yoki sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

2. “Chizmatasvir” fanidan “Odam portreti qo'llari bilan” uslubiy fonda qo'yiladi. Abituriyent odam portretini qo'llari bilan chizish orqali uning tashqi ko'rinishi holatiga hamda qomatning anatomik tuzilishiga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning xarakterlarini ochib berishi, soya – yorug' tomonlariga yengil tuslar berishi va bu bilan chizmatasvir bo'yicha ketma-ketlikka rioya etishi, ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan yuksak estetik did asosida to'liq tugallangan holatga etkazishi talab qilinadi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “Chizmatasvir” fanidan amaliy ishni bajarish uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

<b>№</b>	<b>Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
	<b>Rangtasvir fani bo'yicha amaliy ish</b>	<b>Jami 63 ball</b>
1	Naturaning kompozitsion joylashuvi	0-7 gacha ball
2	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	0-7 gacha ball
3	Rakurs holatining topilish darajasi	0-6 gacha ball
4	Natura qismlarining ozaro nisbiy joylashuvi	0-6 gacha ball
5	Yorug' va soyaning ishlanishidagi mahorat mahorat darajasi	0-6 gacha ball
6	Plastik anatomiyaning odam qomatiga mosligi	0-6 gacha ball
7	Tasvirning naturaga o'xshashligi va xarakterli xususiyatning topilganligi	0-6 gacha ball
8	Naturaning perspektiv (fazoviy) holati	0-6 gacha ball
9	Naturaning atrof muhit bilan bog'langanligi	0-6 gacha ball
10	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	0-7 gacha ball

5. "Kompozitsiya" fanidan abituriyent berilgan mavzu bo'yicha topshiriqni moybo'yoq, akvarel, guash, tempa, akrillardan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya – fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihonda "Kompozitsiya" fanidan berilgan mavzu uchun 160 daqiqa vaqt ajratiladi.

7. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

<b>T/r</b>	<b>Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari</b>	<b>Ball</b>
	<b>Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish</b>	<b>Jami 93 ball</b>
1	Kompozitsiyaning formatga nisbatan to'g'ri joylashtirilganligi	0-5 gacha ball
2	Kompozitsiyaning mavzu jihatdan original topilganligi	0-5 gacha ball
3	Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni ochib berilganligi	0-5 gacha ball

4	Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi	0-5 gacha ball
5	Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	0-5 gacha ball
6	Asar qahramonining obrazini plastik yechim orqali topilganligi	0-5 gacha ball
7	Tasvirning ta'lim yo'nalishiga mosligi	0-5 gacha ball
8	Kompozitsiya markazini to'g'ri topilganligi	0-5 gacha ball
9	Kompozitsiyada yorug' va soyani ishlanishidagi mahorati	0-5 gacha ball
10	Kompozitsiyaning perspektiv (fazoviy) holati	0-4 gacha ball
11	Kompozitsiyada ranglar bilan ishlash jarayonida yorug' – soyalarning bir-biriga mutanosibligi	0-5 gacha ball
12	Kompozitsiyada to'q va och tusalarning to'g'ri topilganlik darajasi	0-5 gacha ball
13	Kompozitsiyada issiq va sovuq ranglarning uyg'unlashuv darajasi	0-5 gacha ball
14	Kompozitsiyada ranglar orqali atrof muhit bilan uzviy bog'langanligi	0-5 gacha ball
15	Kompozitsiyada ranglarning o'zaro mutanosibligi va yaxlitligi darajasi	0-5 gacha ball
16	Kompozitsiyada ranglarni perspektivadan o'zgarish holati	0-5 gacha ball
17	Kompozitsiyada rakurs va fazoviy holatining ishlanish darajasi	0-4 gacha ball
18	Mavzuning mazmuni, ma'nosi ochib berilganligi hamda ranglar uyg'unligi	0-5 gacha ball
19	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	0-5 gacha ball

## **2. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi.**

60210501-Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda vaqt davomida kompozitsiyadan berilgan mavzu asosida bajaradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

## **3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko‘ra, natijalar e‘lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida oliy ta‘lim muassasasi qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to‘g‘risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.


# Uslubiy ko'rsatmalardan namunalar

## CHIZMATASVIR FANI

60210501-Rangtasvir:dastgohli

**Vazifa: Portret qo'llari bilan.**

**Namunalar:**



## **KOMPOZISIYA FANI**

60210501-Rangtasvir:dastgohli

**Vazifa: Berilgan mavzu**

**Namunalar:**

